

ASLIYAT USLUBINING FRAZEOLOGIZMLARNI QO‘LLASHDA NAMOYON BO‘LISHI

Zuhriddinov Biloliddin Xiloliddin o‘g‘li

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
stajyor-o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ma‘lumki, badiiy asarlarni bir tildan ikkinchi tilga o‘g‘irishda erkin birikmalarni tarjima qilish qiyinchilik tug‘dirmaydi. Aksincha, ko‘chma ma‘noda qo‘llanilgan turg‘un birikmalarni, ayniqsa, frazeologik birliklarni tarjima qilish qiyin kechadi. Tilning leksik birliklariga nisbatan birmuncha murakkab tarkibli lisoniy vositalari bo‘lmish frazeologik birliklarni tarjimada adekvat talqin etish tarjima amaliyotining o‘ta murakkab va, shu bilan birga, juda mas‘uliyatli masalalaridan hisoblanadi. Chunki frazeologik birliklar nutqning badiiy-tasviriy vositalari sifatida fikrning oddiy, betaraf bayonidan ko‘ra ko‘proq turli-tuman uslubiy vazifalarni ifoda etishda ishtirok etadilarki, ularning ushbu vazifalarini hisobga olgan holda, ularni tarjimada bejirim talqin etishga intilish badiiy asarning obrazli hamda hissiy tasviriy qiymatini qayta yaratish yo‘lidagi jonbozlik bilan chambarchas bog‘liqdir. Frazeologik birliklarni tarjima qilishning o‘ta murakkab amaliy jarayon ekanligi asosan mazkur birliklar tabiatiga – ularning leksik, semantik va qurilish jihatlaridan murakkabligiga vobastadir. Boz ustiga, talay frazeologizmlar milliy xususiyatga egadirlarki, bu hol ham tarjimonlar oldiga qator amaliy qiyinchiliklarni ko‘ndalang qilib qo‘yadi.

Kalit so‘zlar. *Deyimlar, atasözler, frazeologik birlik, realiya,*

KIRISH

Frazeologik birliklar millatning ruhi, mentaliteti, turmush tarzini namoyon qiladi. Shunga muvofiq, asl nusxa va tarjima tillaridagi frazeologik birliklarning o‘ziga xos xususiyatlarini qiyosiy o‘rganish, ular orasidagi mazmuniy-uslubiy muvofiqlik holatlarini aniqlash va tarjima jarayonida ularning birini ikkinchisi vositasida talqin etish yo‘llari va imkoniyatlarini belgilash to‘laqonli tarjima yaratish uchun zamin hozirlaydi.

“...Turkiy tillarda arabchadan o‘zlashgan *mesel, sav, tabir, durub-i emsal* atamalari bilan nomlangan maqol va iboralarda turkiy xalqlarning tarix mobaynida to‘plangan hayotiy tajribasi, falsafiy o‘z aksini topgan. Hozirgi turk tilida maqollar *atasözleri*, iboralar esa *deyimler* deb ataladi.”¹

¹Hamidov X. Maqol va idiomalar tarjimasini muammolari. Monografiya. – Toshkent, 2017. – B.86.

Tilning lugʻat tarkibini tashkil etuvchi birliklardan biri iboralardir. Ikki va undan ortiq soʻzlardan tarkib topgan va yaxlit bir koʻchma maʼnoni ifodalaydigan, taʼsirchanlikka ega boʻlgan til birligi ibora (frazeologik birlik) deyiladi.

Odatda erkin birikmalami tarjima qilish muammo tugʻdirmaydi. Agar erkin birikmalardagi soʻzlardan biri koʻchma maʼnoda qoʻllansa, uni tarjimada berish qiyinlashadi. Ingliz tilida iboralarning bir nechta turi mavjud boʻlib, ularning har birini tarjima qilishda alohida yondashuv talab etiladi. Birinehi turdagi soʻz birikmasi sifat+ot turi. Ularning semantik strukturasi bir-biridan katta farq qiladi. Bu birikmada qoʻllangan otning xususiyatini va sifatini belgilaydi. Agar ingliz tilidagi “free educational institution” birikmasida free soʻzi institution soʻzi bilan aloqasi yoʻq, bu degani baʼzi hollarda sifatlar otning xususiyatlari va sifatidan tashqari u bilan bogʻliq tushunchalarni ham ifodalashi mumkin. Yana bir misol. Ingliz tilidagi “a medical man” birikmasini tarjima qilishda “a stout person” birikmasini tarjima qilishda qoʻllangan usuldan foydalanib boʻlmaydi. Ingliz tilidagi “a stout person” oʻzbek tiliga “toladan kelgan yoki semiz odam” deb tarjima qilinadi. Ingliz tilidagi “a medical man” birikmasini oʻzbek tiliga tarjima qilishda soʻzmasoʻz tarjima toʻgʻri kelmaydi. Bu yerda ikki soʻz bitta maʼnoni ifodalaydi va u “shifokor” deb oʻgiriladi. Oʻzbek tilida ham bunday bitta maʼnoni ifodalovchi birikmalami koʻplab uchratish mumkin. Masalan, “togʻ qoʻyi”, “malla sochli”, “devor soati” va hokazo. Bir otni bir nechta sifat aniqlab kelishi mumkin boʻlgan hollar ham uchraydi. Bunda aniqlanmish boʻlib ot kelishi mumkin. Masalan, “temir xotin”, “ichkari uy kaliti” kabilar.

“Frazeologik birliklarni tarjima qilishning oʻta murakkab amaliy jarayon ekanligi asosan mazkur birliklar tabiatiga, ularning leksik, semantik va qurilish jihatlaridan murakkabligiga vobastadir. Boz ustiga, talay frazeologizmlar milliy xususiyatga egadirlarki, bu hol ham tarjimon oldiga bir qator amaliy qiyinchiliklarni qoʻyadi.”²

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Asl nuxsa va tarjima tillari frazeologizmlarining tabiatini qiyosiy oʻrgangan holda, ular orasidagi mazmuniy-uslubiy muvofiqlik holatlarini aniqlash va tarjima jarayonida ularning birini ikkinchisi vositasida talqin etish yoʻl va imkoniyatlarini belgilash toʻlaqonli tarjima yaratish uchun zamin yaratadi. Frazeologik birliklarni tarjima qilishda ular asosida mujassamlashgan obrazning barhayot yoki siyqaligini oydinlashtirishning ham tarjima tilida asl nusxadagi lisoniy birliklarga mazmun va uslub jihatlaridan mos til vositalarini tanlashda ahamiyati katta. Obrazlilik ochiq-oydin koʻzga tashlanib turadigan frazeologizmlarning muqobil lisoniy vositalar

²Мусаев К. Таржима назарияси асослари. Дарслик – Тошкент: Фан, 2005. – В. 113.

yordamida o'g'irilishi asl nusxa mazmuniy-uslubiy jihatdan xususiyatining tarjimada qayt yaratilishini ta'minlaydi. Ammo ba'zan obrazliligi ma'lum darajda xiralashib qolgan frazeologizmlarning o'zidek xususiyatiga ega lisoniy vositalar orqali emas, balki obrazliligi barhayot barqaror birikmlar yordamida yoki, aksincha, obrazliligi ochiq-oydin ko'zga tashlanib turadigan frazeologizmlarning ushbu xususiyati so'nibroq qolgan lisoniy vositalar orqali adekvat talqin etilishining guvohi bo'lamizki, bunday xollarda ikki til birliklari o'rtasidagi pragmatik muvofiqlik moslashtiruvchi vositalar qo'shish yo'li bilan vujudga keltiriladi.

Ibora tuzilishiga ko'ra so'z birikmasiga o'xshab ketsa ham nutq birligi sanalgan bunday birliklardan tamoman farq qiladi. U so'z birikmasi kabi har gal nutqning o'zidagina yuzaga kelmaydi. Til birligi sifatida nutqqacha tayyor holda mavjud bo'ladi. Shunga ko'ra iboralar turg'un so'z birikmasi deb ham yuritiladi. Masalan, o't bilan o'ynashmoq (*alevle oynamak*), yaraga tuz sepmoq (*yarayi yenilemek*), ko'zlariga ishonmaslik (*gözlerine inanmamak*), tomdan tarasha tushganday (*aniden*), ko'zdan kechirmoq (*gözden geçirmek*).

So'z birikmasining tarkibidagi so'zlar o'z leksik ma'no mustaqilligini saqlagan bo'ladi. Iboraning tarkibidagi so'zlar esa o'z leksik ma'nosi bilan qatnashmaydi, ma'nosini yo'qotgan bo'ladi. Ba'zan ibora so'z birikmasi bilan teng kelib olishi mumkin. Bunday holatda ibora turg'un birikma sifatida erkin birikma bilan omonimik holatda bo'ladi.

Frazeologik birliklar bir tildan ikkinchi tilga asosan to'rt xil yo'l bilan asliyat tilidagi birlikka komponentlar tarkibi, grammatik qurilishi hamda ma'no va uslubiy vazifasi mos ekvivalentlar, boshqa hossalari farq qilgani holda, ma'no va uslubiy vazifasi o'xshash muqobil variantlar, qal'qa usulida va tasviriy yo'sinda tarjima qilinadilar.

Frazeologik mos kelishlarning asosiy turlari quyidagilardir:

1. To'liq moslashish.
2. Qisman moslashish, ular obrazlilik jihatidan yaqin, lekin leksik tuzilishi, sintaktik kelishuvidan va so'zlar tartibi jihatidan farqlanadi.
3. Moslashishning bo'lmasligi. Har xil tillarda ko'p frazeologik birliklarning frazeologik moslashuvi mavjud emas. Ular realiyadir. Realialar leksik birlik bo'lib, insonlar hayotidagi milliy urf-odatlar va ularga xos bo'lgan hodisalarni anglatadi

Asosan, bir tildagi frazeologik birlikni yana boshqa bir tillarda ekvivalenti bo'lishi, bu o'sha xalqlarning yashash tarzi, turmush sharoitlari va urf-odatlarida mushtaraklik borligidan dalolat beradi. Frazeologik birliklar ham boshqa til vositalari kabi turli-tuman umuminsoniy fikr bayon qilish me'yorlari asosida vujudga keladi va ularning negizida bir xil hayotiy tajribaga asoslangan tushunchalar yotadi.

Har qanday asarning o‘ziga xosligi, dastavval, uning mazmunida va asarning tilida ko‘rinadi. Asarning haqiqiy mazmunida ifodalangan milliy o‘ziga xoslikni berish tarjimonga unchalik qiyinchilik tug‘dirmaydi. Asarning tilida ifodalangan milliy ruhni berish esa haqiqatan ham qiyin ish. Chunki, asar qaysi xalqning hayoti bilan chambarchas bog‘liq, shu xalqning fikr tarzini aks ettiruvchi idomatik iboralarga, frazeologik birliklarga boy bo‘lib, ular o‘z navbatida yozuvch uchun asarda xalq tilini ifodalovchi asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Haqiqatan ham ma‘lum bir ma‘noga ega bo‘lgan, biror hodisani obrazli hamda hajviy ifoda qiladigan maqollar ma‘lum bir xalqning turmushini aks ettiradigan hikmatli so‘z bo‘lib, xalq og‘zaki ijodining ko‘rinishlaridan biri hisoblanadi. Hikmatli so‘z yoki idomatik iboralarni tarjima qilishda xalqning hayotini aks ettirish uchun keltirilgan fikrlarni berish juda muhimdir. Har bir maqolda, biz, o‘sha xalqning qiyofasini ko‘rar ekanmiz, endi bu qiyofani butun go‘zalliklari bilan ikkinchi xalqni tanishtirish xayrli va jiddiy ishdir. Chunki, his-tuyg‘ular o‘z ifodasini topgan obrazli iboralarni bir tildan ikkinchi tilga o‘girish tarjimondan juda ko‘p mehnat talab qiladi. Tarjima qilingan maqol o‘z qimmatini yo‘qotmaydi, aksincha, boshqa bir xalq uchun katta hayotiy va ma‘naviy-tarbiyaviy qimmatga ega bo‘ladi. O‘girmada mumkin qadar birikmaning aniqroq, asl nusxa ma‘nosiga yaqin muqobilini topishga harakat qilish lozim. Asl nusxaning badiiy to‘laonligini berish uchun tarjimon maqolning o‘ziga xos belgilarini ilg‘ab olishi, unga mos keladigan muqobillarini topishi, eng asosiysi, tarjimon maqolning milliy ruhini saqlashi lozim. Shu o‘rinda K.Chukovskiyning quyidagi so‘zlarini eslash kifoya: “Agar tarjima asari faqat so‘zning ma‘nosini bersa, u holda uning sehri yo‘qolib, san‘at asari bo‘lmay qoladi. So‘z zamirida yotgan obrazlar, bo‘yoqlar, tuyg‘uni, hissiyotning alangasini ham, aql o‘yinini ham, asarning butun go‘zalligini – hamma-hammasini olib bergandagina tarjima asarining sehri, san‘at asari ekanligi bilinadi”. Demak, tarjimada so‘zlarning zamirida yotgan ma‘noni ochib berish katta ahamiyatga ega ekan.

Tarjimon o‘girayotgan asarining faqatgina asosiy g‘oyasini, muallif uslubinigina emas, balki personajlar tilining milliy xususiyatlarini ham to‘la-to‘kis ochib berishlari kerak. Obrazlar nutqidagi milliy ruhni saqlab qolish tarjimonning eng muhim vazifalaridan biridir. Agar asl nusxadagi barcha milliy belgilar o‘chirib yuborilsa, tarjima qilinayotgan asar o‘z qiyofasini yo‘qotadi, uning obrazlari asar ruhini belgilamaydi. Bunday tarjimondan kitobxon asarning muallifi va voqealari haqida, personajlar va voqea sodir bo‘layotgan joy haqida to‘liq tasavvurga ega bo‘lmaydi.

Tarjimaning ba‘zilari muvaffaqiyatli chiqishi yoki aksariyat qismida kamchiliklar kuzatilishi tarjimonning mohirligiga, ikki tilni qay darajada mukammal

egallaganiga bog‘liq hodisadir. Tarjima – ijodiy fikrlashni rivojlantirishga, tadqiqotchilik faoliyatini egallashga qaratilgan mustaqil ishlarni bajarish orqali tarjima asar mohiyatini ochish, tahlil qilishdan iboratdir. ham, tarjimada ham badiiy tasvir vositalari va so‘z tanlash muammosi kuchli mahorat talab qiladi. Adib asar yaratayotganda qanday so‘z ishlatsam ekan, deb maxsus o‘ylab o‘tirmaydi. Xayolda paydo bo‘lgan fikrni o‘sha zahotiy oq aniqroq qilib qog‘ozga tushiradi. Tarjimada esa vaziyat o‘zgacharoq. Tarjimon asarni boshqa tilda qayta yaratish uchun muallifning fikrini uzoq vaqt pishitadi, o‘ziga singdirib oladi, keyin matn harakteriga qarab so‘z tanlaydi, bu so‘zlar ma’nosi, jarangdorligi, shakli, uslubiy muqobilligi, asl nusxadagi fikrni iloji boricha to‘laroq ifodalashi tashvishida yonadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. Hamidov X. Maqol va idiomalar tarjimasini muammolari. Monografiya. – Toshkent, 2017. – B.86.
2. Мусаев Қ. Tarjima nazariyasi asoslari. Darслик – Toshkent: Fan, 2005. – B. 113.
3. Alimbekov A. Tarix va badiiy haqiqat//jahon adabiyoti, 10-son. – Toshkent, 2005. – B. 34-41.
4. Aminova L. Turk yozuvchisi Yashar Kamol asarlarida badiiy mahorat masalalari, - fil.fan.nom.diss. –Toshkent, 2003. – 187 b.
5. Bahordiro‘g‘li Ya. Xorazm o‘t ichida. – Toshkent: O‘zbekiston, 2003. – 346 b.
6. Hamidov X. O‘zbekchadan turkchaga nasriy tarjima muammolari. – Toshkent, 2014. -
7. Hamidov X. Maqol va idiomalar tarjimasini muammolari. – Toshkent. 2017. – 137 b.
8. Hamidov X. Badiiy tarjimada so‘z tanlash muammosiga doir. – Toshkent: ToshDSHI, 2013. – 167 b.
9. Hamidov X, O‘zbek turk tarjimachiligining dolzarb muammolari(1991-2017). Abdulla Qodiriy asarlari turk tilida.– Toshkent, 2019. – 246 b.